




NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik 2021- yil yanvar-sentabr


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik




yanvar-sentabr oylarida kichik
tadbirkorlik subyektlarining
YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **74,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,0** birlikni tashkil qildi.


2021- yilning yanvar-sentabrida **4882** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,4** foizga kam demakdir.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1799** ta, sanoatda **1357** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **544** ta, qurilishda **315** ta, yashash va ovqatlanishda **237** ta, tashish va saqlashda **142** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 96,9

Sanoat 48,1

Qurilish 96,0

Investitsiya 68,8

Savdo 93,2

Xizmatlar 67,1

Eksport 51,2

Import 79,0



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

30 378




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

4 882

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2021- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar, % da

Savdo

34,9%



Sanoat

24,4%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9,5%



Qurilish

8,3%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,1%



Tashish va saqlash

3,8%



Axborot va aloqa

1,7%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,0%



Boshqa faoliyat turlari


10,3%



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha 2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020- y. yanvar-sentabr

■ 2021- y. yanvar-sentabr


2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri - 33,6 %, Chust tumani - 8,5 %, Namangan tumani - 7,2 %, Uychi tumani - 6,7%, To'raqo'rg'on tumani - 6,4%, Pop tumani - 6,2%, Kosonsoy tumani - 6,1%, Uchqo'rg'on tumani - 5,9% hissalariga to'g'ri keldi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
1799 ta

Sanoatda
1357 ta

Qishloq,
o'rmon va
baliqchilik
xo'jaligida
544 ta

Qurilishda
315 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,0 birlikni tashkil etdi.



Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*

2019- y.

9,9

2020- y.


11,4

2021- y.

13,0

2021- yilning yanvar - sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan tumanida 15,7 birlik, Namangan shahrida 15,5 birlik, Mingbulloq tumanida 15,1 birlik, Chust tumanida 14,0 birlik, Chorotq tumanida 13,0 birlikni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Namangan tumani - 15,7 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Chortoq tumani - 13,0 birlik.

Past ko'rsatkich
Yangiyo'rg'on tumani - 10,4 birlik.

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan tumanida 15,7 birlik, Namangan shahrida 15,5 birlik, Mingbuloq tumanida 15,1 birlik, Chust tumanida 14,0 birlik, Chortoq tumanida 13,0 birlikni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 182,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 51,2 % ini tashkil etdi.



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2021- yilnig yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Kosonsoy tumanida – 63,0 %, Uychi tumanida – 62,7 %, Namangan shahriida – 60,1 % va Pop tumanida – 51,8 %ni, eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida – 4,3 %ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **344,1** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **77,5%** ini tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Uychi tumanida – 98,4 %, Norin tumanida – 95,7 %, Kosonsoy tumanida – 91,9 %, Pop tumanida – 83,9 %. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida - 13,7 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (2139,2 mlrd. so'm), Uychi (510,0 mlrd. so'm), Namangan (368,0 mlrd. so'm), Kosonsoy (268,9 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (265,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Uchqo'rg'on tumanida (93,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **48,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100,0%), Uychi tumani (75,5%), Kosonsoy tumani (69,2%), Namangan shahri (61,3%), Pop tumani (50,2%) tashkil etdi. Yangiqo'rg'on (16,1%) hamda Uchqo'rg'on (15,0%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9247,9** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,2 %** ini tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,6 %** ga o'sishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (3947,9 mlrd. so'm), Chust (763,1 mlrd. so'm), Pop (665,3 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (607,8 mlrd. so'm) Kosonsoy (523,9 mlrd. so'm) va Yangiqo'rg'on (461,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3749,7** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **96,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **116,5 %**ni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (1044,3 mlrd. so'm), Uychi (413,1 mlrd. so'm), Namangan (322,9 mlrd. so'm), Kosonsoy (311,1 mlrd. so'm), Chortoq tumanlarida (257,4 mlrd. so'm), Pop (244,5 mlrd. so'm) hamda Uchqo'rg'on (221,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5548,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **121,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (1572,5 mlrd. so'm), Pop (419,1 mlrd. so'm), Chust (412,3 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (389,1 mlrd. so'm), Chortoq (376,7 mlrd. so'm), Uychi (367,3 mlrd. so'm) va Namangan (363,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2021- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, %


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,6 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi.


2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,2 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1151**ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 406 (35,2%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 700 (60,8%) tasi subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45(4,0%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,6 % (76 ta), sanoatda – 20,2 % (233 ta), qurilishda – 8,1 % (93 ta) , savdoda – 40,6 % (467 ta), xizmatlar sohasida – 24,5 % (282 ta) ni tashkil etdi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (384 ta), Pop (99 ta), Chust (82ta), Uychi (75 ta), Namangan tumani (74 ta) va Uchqo'rg'on (68 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra **joriy davrda** iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 32,3 % ni, xizmatlar sohasida 27,4 %ni, sanoatda 24,9 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 77,5 %ni, savdoda 72,8 % ni, xizmatlar 69,0 %ni tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 44,4 %ni, xizmatlar sohasida 36,1 %ni, sanoatda 35,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 69,0 %ni, savdoda 66,6 %ni, xizmatlar sohasida 62,4 %ni tashkil etdi.

